

**Bank binosini qo'riqlash bo'yicha
-sonli SHARTNOMA**

2022 yil «06» 08

Buxoro tuman.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i Sh.A.Jumaev (keyingi o'rinnlarda «Ijrochi» deb yuritiladi) bir tomonidan, va qonun asosida ish yurituvchi ATB Qishloqqurilish bank Gala-Osiyo filiali boshqaruvchisi F.O.Jumaev (keyingi o'rinnlarda "Xo'jalik organi" deb ataladi) ikkinchi tomonidan, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Sharhnomaning predmeti.

1.1. "Qo'riqlash" bank va unga tegishli bo'lgan xududni qo'riqlash, bankning muxim xonalarini texnik qo'riqlash punkti orqali qo'riqlash va bank binosining barcha xonalariga o'rnatilgan signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tuzilgan shartnoma va uning ilovasida tasdiqlangan smeta-xisobi asosida bajaradi, va "Xo'jalik organi" "Qo'riqlash" tomonidan taqdim etilgan xisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida belgilangan muddat ichida to'lovni amalga oshiradi.

2. Umumiy tartiblar.

2.1. "Xo'jalik organi" ob'ektlarini (keyinchalik—"ob'ekt" deb ataladi) qo'riqlashga topshiradi, «Qo'riqlash» esa ATB Qishloqqurilish bank Gala-Osiyo filialining Buxoro tuman Gala-Osiyo shaxri Buxoro shox ko'chasida joylashgan ma'muriy binosini 1 ta 24 soatlik saf bo'linmasi posti orqali Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Buxoro tuman qo'riqlash bo'limi tomonidan, ushbu ob'ektning ombor xonasi ish kunlari 12 soat (20-00 dan 08-00 gacha) dam olishdan oldingi kunlar 16 soat, dam olish kunlari 24 soatdan kechki xazinaxonasi, ish kunlari 12 soat (20-00 dan 08-00 gacha) dam olishdan oldingi kunlar 12 soat, dam olish kunlari 16 soat, kirish eshigi ish kunlari 12 soat (18-00 dan 06-00 gacha) dam olishdan oldingi kunlar 16 soat dam olish kunlari 24 soat, va jamlagich panelini, ish kunlari 12 soat (20-00 dan 08-00 gacha) dam olishdan oldingi kunlar 16 soat, dam olish kunlari 24 soatdan, valyuta ayirboshlash shaxobchasi ish kunlari 9 soat, (09-00 dan 13-00 gacha 14-00 dan 19-00 gacha) dam olishdan oldingi va dam olish kunlari 6 soatdan, (09-00 dan 13-00 gacha 14-00 dan 16-00 gacha) Bankomatni 6 soat (18-00 dan 06-00 gacha) Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi Buxoro tuman Qo'riqlash bo'limi texnik qo'riqlash markazi hamda tashvish tugmasi tomonidan qo'riqlashga qabul qilinadi.

2.2. Qo'riqlanadigan xududlarning chegarasi (bino va inshootlar) qo'riqlash postlarining plan-sxemada joylashuvi, dislokatsiyasi va postlar tabeli (yo'nalishi) shartnomaga ilova sifatida ishlab chiqiladi.

2.3. Binoga ruxsatnomalar bilan kirib-chiqish tartibi va ob'ektning ichki tartib Yo'riqnomasi "Xo'jalik organi" tomonidan ishlab chiqiladi va "Qo'riqlash" bilan kelishilgan xolda shartnomaga ilova etiladi.

2.4. Bank binosini qo'riqlash, yong'in va "Tashvish" xabari texnik vositalari bilan jixozlash O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki birgalikda tasdiqlagan texnik Talablar asosida "Xo'jalik organi" tomonidan amalga oshiriladi.

Signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlar ichki ishlar idoralari qo'riqlash bo'limlari texnik xodimlari tomonidan shartnoma asosida bajariladi.

Signalizatsiya vositalarni o'rnatish va ularni sxemalari shartnomaga ilova qilinadi.

2.5. "qo'riqlash"ning bank binosini texnik mustaxkamligini kuchaytirishga qaratilgan takliflari, zamonaviy texnik vositalarini joriy etish xamda belgilangan qo'riqlash tartibini meyoriy xujjalalar va umum davlat talablari asosida tashkil etish "Xo'jalik organi" uchun zaruriydir.

2.6. "Xo'jalik organi" idoralararo komissiya tomonidan binoni tekshirish dalolatnomasida ko'rsatilgan barcha talablarni bajargandan so'ng, Qo'rilash xodimi posti qo'riqlash turi, ob'ektni ob'ektni qo'riqlash olish materiallari va Qo'riqlash xodimi posti orqali qo'riqlovga olish masalasi 3 oy ichida, "Xo'jalik organi" dan "qo'riqlash"ga kafolat xati kelib tushgan vaqtadan boshlab xamda O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasining shtatlar ajratish xaqidagi buyrug'i tasdiqlangandan so'ng 3 kun ichida yo'lga qo'yilib, bank binosi qo'riqlashga qabul qilinadi.

2.7. "Xo'jalik organi" tomonidan shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmasa, bank binosini qo'riqlash amalga oshirilmaydi. (qo'riqlash xizmati belgilangan tartibda bekor qilinadi yoki qo'yilgan xodimlar chiqariladi).

2.8. Shtatlar asosida qabul qilingan bank binolarini qo'riqlash davomida, xo'jalik organining ma'lum muddatda ishlagan kunlarida, shartnoma vaqtincha to'xtatilmaydi xamda xisob smetalarda ko'rsatilgan summalarga o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Z. Tomonlarning majburiyatları.

3.1. "Xo'jalik organi"ning majburiyatları:

3.1.1. "Xo'jalik organi" Respublika Markaziy banki va Ichki ishlar vazirligi birgalikda 2010 yil 5 iyundagi 12,21/7-tasdiqlagan qarori Texnik Talablarda bank binosini texnik mustaxkamligini oshirish buyicha tadbirlarni bajaradi, texnik ximoya vositalari bilan jixozlash ishlarini (qo'riqlash xonalarini aloqa va signalizatsiya vositalari bilan jixozlash, barcha eshiklarga qulflar o'rnatish, o't o'chirish vositalari bilan to'liq ta'milashni) idoralarapo komissiya (bank vakillari, yong'in xavfsieligi va "Qo'riqlash" boshqarmalari) dalolatnomasi asosida o'z xisobidan bajaradi.

3.1.2. Bankni xududi va qo'riqlanayotgan perimetritini kechasi paytda yoritish vositalari bilan jixozlab, qo'riqlash naryadlari tomonidan nazorat qilishga sharoitni yaratadi.

3.1.3. Devorlar, tomlar, shiftlar, turli qopqoq va lyuklarni. qo'riqlanayotgan moddiy-tovar boyliklari

saqlanayotgan xonalarning eshiklarini soz va mustaxkamligini ta'minlaydi.

3.1.4. «Xo'jalik organi» bank binosida yong'inni oldini olish bo'yicha chora tadbirlarni tashkil etadi va bajaradi.

3.1.5. Signalizatsiya vositalarni Texnik qo'riqlash punktiga ulash uchun telefon tarmog'i ajratadi.

3.1.6. "Xo'jalik organi" telefon va elektr tarmoqlarini o'z vaqtida ta'mirlashga javob beradi.

3.1.7. "Xo'jalik organi" qo'riqlash xizmatlari uchun amaldagi oylik to'lovni navbatdagi oy boshlanishidan 10 kun avval (ya'ni xar oyning 20 sanasiga qadar), "Qo'riqlash" ning xisob raqamiga 100% miqdoridagi pulni o'tkazib beradi.

3.1.8. Bajarilgan xizmatlar va amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha "Xo'jalik organi" "Qo'riqlash" bilan birgalikda xar chorakda solishtiruv xisoblarini va lozim bo'lganda o'zaro xisob-kitoblarni bajaradi.

3.1.9. Qo'riqlash vaqtida pul va valyuta boyliklarini, qimmatbaxo buyumlarni omborlarda saqlash, pul omborida belgilangan limitdan ortiqcha pul saqlanishiga yo'l qo'ymaslik.

3.1.10. Bank xududida saqlanayotgan moddiy boyliklarni devor va to'siqlardan 10 metrdan kam bo'limgan masofada joylashtirish.

3.1.11. "Qo'riqlash" xodimlarini signalizatsiya uskunalarini va o't o'chirish vositalaridan foydalanish imkoniyatini berish.

3.1.12. «Xo'jalik organi» "Qo'riqlash" bilan birgalikda xar chorakda kamida bir marta bankning texnik mustaxkamligi, qo'riqlash va yong'indan xabar berish texnik vositalari bilan jixozlanishi va ularning sozligini nazorat qilib, tuzilgan dalolatnomaga mas'ul xodimlar tomonidan tasdiqlanadi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha "Xo'jalik organi" «Qo'riqlash»ga belgilangan muddatlarda ma'lumot beradi.

3.1.13. Tekshirish dalolatnomalarida belgilangan binoning texnik mustaxkamligini oshirish bo'yicha tadbirlarni, tovar-moddiy boyliklarni daxilsizligini, bankni qo'riqlanishini takomillashtirish, ruxsatnomaga bilan kirib-chiqish va bankning ichki tartibini mukammal darajasini ta'minlash, «Qo'riqlash»ga uning vazifalarini to'liq bajarishga sharoit yaratadi.

3.1.14. Belgilangan qo'riqlash qoidasiga amal qilish bo'yicha «Qo'riqlash»ning yozma talablarini bajarish. qo'riqlash texnik vositalardan foydalanish va yangilarini joriy etish ishlarini me'yoriy xujjatlar talablari asosida bajarish.

3.1.15. Bank binosini kapital ta'mirlash, xonalarni qayta jixozlash, ishlash tartibi, ishlarning yo'naliishi, boyliklarni saqlash uchun yangi joylar tashkil etilishi, eski joylarning o'zgarishi, qo'riqlanadigan joylarni arendaga berilishi yoki boshqa mulkdorlarga topshirilishi xolatlari natijasida qo'riqlash tartibi, postlarning dislokatsiyasi o'zgarganda yoki qo'shimcha signalizatsiya vositalari o'rnatilishiga extiyoj tug'ilganda "Xo'jalik organi" "Qo'riqlash"ga 30 kun oldin yozma xolda murojaat etadi.

3.1.16. Signalizatsiya vositalari va uskunalarini ko'rikdan o'tkazish yoki ta'mirlash uchun "Qo'riqlash" boshqarmasi vakolat bermagan shaxslarga ruxsat bermaslik.

3.1.17. Bank binosiga ruxsatnomaga bilan kirib-chiqish yo'riqnomasini ishlab chiqib, "Qo'riqlash" bilan kelishiladi.

3.1.18. Bankning ish vaqtiga tugashidan 1 coat oldin «Xo'jalik organi» qo'riqlash signalizatsiya vositalarini sozligini tekshirib, Texnik qo'riqlash punktiga nozorat uchun topshirib sinab ko'radi. Nosozliklar aniqlanganda zudlik bilan xizmat ko'rsatuvchi elektromontyor chaqiradi va "Qo'riqlash"ni bu xaqda ogoxlantiriladi.

3.1.19. "Xo'jalik organi" bank binosidagi xonalarni, shu jumladan TKPga topshiriladigan xonalarni xolatini tekshirib, eshik, deraza va darchalar yopilgani, ulardan elektr jixozlar, uskunalar va chiroqlar yoqilmaganligi, olov manbai va begona shaxslar qolmaganligini nazorat qilib «Qo'riqlash» ga toshpiradi.

3.1.20. Binoning xonalari qulflangan, muxrlangan xolatda qo'riqlashga topshiriladi. xonalarning kalitlari «Qo'riqlash»ga muxrlangan kolbalarda topshiriladi.

3.1.21. Qo'riqlanayotgan xududda xonalardan tashqarida joylashgan moddiy boyliklarni qo'riqlashga soni va assortimentiga asosan, taxlangan va o'ralgan xolda, qayta sanash orqali qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etish yo'li bilan "Xo'jalik organi" va "Ijrochi" vakillarining imzolari bilan tasdiqlanadi.

3.1.22. Ish vaqtiga tugashi bilan bank binosidagi xonalarning qo'riqlash signalizatsiyasini ishga tushiradi. Signalizatsiya tizimida nosozliklar aniqlansa zudlik bilan "Qo'riqlash"ni ogoxlantiradi xamda nosozlik bartaraf etilguncha binodan chiqmasdan, xonani qo'riqlashga belgilangan tartibda topshiradi. Texnik qo'riqlash punktiga xonani topshirgandan 5 daqiqadan so'ng qo'riqlashga qabul qilingaligiga iqror bo'lishi kerak.

3.1.23. Alovida muxim xonalarni qo'riqlashga topshirish va qo'riqlashdan qabul qilish maxsus jurnalida "Xo'jalik organi" va "Qo'riqlash" vakillarining imzolari bilan tasdiqlanadi,

3.1.24. «Qo'riqlash»ning xodimlari tomonidan qo'riqlash xizmatlarini bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatoliklar xaqida «Qo'riqlash» xizmati raxbarlariga tegishli choralar ko'rish uchun axborot beradi.

3.1.25. Qo'riqlanayotgan xonalarning butligi buzilganligi yoki begona shaxslar kirishi natijasida ziyon yetkazilganligi xaqida «Qo'riqlash»ga xabar berib, uning vakillari kelguncha ko'rsatilgan joylarning daxilsizligini ta'minlaydi.

3.1.26. Yetkazilgan ziyon miqdorini aniqlash maqsadida "Qo'riqlash"ning vakillari ishtirokida tovar-moddiy boyliklar koldiqlarini xisobini bajarib, kerakli ma'lumot va xujjatlar bilan ta'minlaydi.

3.1.27. Qo'riqlash tizimi, uning ish tartibi va pult raqamlari xaqida begona shaxslarga ma'lumot bermaydi.

3.1.28. "Qo'riqlash"ning vakillarini bank bnnosidagi ichki tartib va qo'riqlash xizmatlarini bajarishga oid mexnat muxofazasi qoidalari bilan tanishtiradi.

3.1.29. Signalizatsiya vositalarining barcha nosozliklari xaqida "Qo'riqlash" ga xabar beradi xamda TQPga

gan xonalardagi qo'riqlash vositalarining nosozligi bartaraf etilmaguncha binodan ketmaydi. Signalizatsiya vositalari "Qo'riqlash"ning aybi bo'Imagan xolda nosoz xolatga kelsa, xamda uning texnik xizmat ko'rsatishda bajariladigan joriy ta'mirlash orqali ish xolatini tiklash imkoniyati bo'lmasa, o'rta ta'mirlash yoki yangisini almashtirish "Xo'jalik organi"ning xisobidan bajariladi.

3.2. "Qo'riqlash"nnng majburiyatlar:

3.2.1. "Qo'riqlash" Ichki ishlar vazirligi va Respublika Markaziy banki birqalikda 2010 yil 5 iyundagi 12,21/7-tasdiqlagan qarori xamda "Xo'jalik organi" va "Qo'riqlash" raxbarlari tasdiqlagan, Idoralararo komissiyaning tekshiruv dalolatnomasi asosida ishlab chiqilgan, postlar joylashuvi (Patrul mashrutlari) asosida banklarning bino va inshootlari qo'riqlanadi va muxofaza etiladi.

3.2.2. "Qo'riqlash" muxim xonalarni TQM tomonidan qo'riqlanishini ta'minlaydi va signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini shartnoma asosida bajarib, qo'riqlash, yong'in va tashvishdan xabar beruvchi vositalarini ishchi xolatini ta'minlaydi.

3.2.3. Bank binosidagi xonalarini qulflangan va muxrlangan xolatda qo'riqlashga qabul qiladi. Kalitlarni muxrlangan g'iloflarda saqlash uchun qabul qiladilar.

3.2.4. Xonalardan tashqarida qo'riqlanadigan xududda joylashgan moddiy boyliklarni qo'riqlashga soni va assortimentiga asosan, taxlangan va o'ralgan xolda, qayta sanash orqali qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etish yo'li bilan "Xo'jalik organi" va "Qo'riqlash" vakillarining imzolari bilan tasdiqlangandan so'ng qo'riqlashga qabul qiladi.

3.2.5. Bank tomonidan ishlab chiqilgan kirib-chiqish tartibini shartnoma asosida amalga oshiradi, bankning qo'riqlanayotgan xududiga tovar moddiy boyliklarni olib kirilishini va olib chiqilishini o'rnatilgan tartibda nazorat qiladi.

3.2.6. Nazorat punktidan bir marotabalik ruxsatnoma bilan o'tkazilgan barcha tashrif buyuruvchilarning bankning ish vaqtini tugagandan keyin binodan chiqib ketganligini nazorat qiladi.

3.2.7. Bankni tekshirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan joriy etilishi lozim bo'lgan texnik qo'riqlash vositalari bo'yicha bank raxbarlariga takliflar beradi.

3.2.8. Qo'riqlash postlarida xizmatni bajarayotgan "Qo'riqlash"ning vakillari yong'in xavfsizligi bo'yicha o'rnatilgan qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydi.

3.2.9. Qo'riqlanayotgan bankda yong'in paydo bo'lganda yoki qo'riqlash-yong'in signalizatsiyalari ishlab ketganda yong'inni o'chirish qismiga va bank raxbarlariga xabar beradi.

3.2.10. Bankga begona shaxslarning kirganligi belgilari aniqlanganda, bankning mansabdor vakillarini tezkorlik bilan chaqiradi va bankning daxlsizligini ta'minlaydi.

3.2.11. Signalizatsiya vositalari ishlab ketgan vaqtida bankning mas'ul xodimlarini chaqirtirib, signalizatsiya vositalarini ishlab ketish sababi aniqlanadi va soz xolatda qo'riqlashga topshiriladi. Tekshirish va qayta topshirish to'g'risida dalolatnomada tuzilib ikki tomonlama tasdiqlanadi.

3.2.12. Qo'riqlash xodimlari qo'riqlash turiga binoan kiyim, ekipirovka, qurol va o'q dori bilan ta'minlanganligi, qo'riqlash xizmatining tashkil etilishi va bajarilishi "Qo'riqlash" tomonidan nazorat qilinadi.

3.2.13. Qo'riqlanayotgan bankning texnik mustaxkamligi. texnik qo'riqlash vositalari, shu jumladan qo'riqlash-yong'in signalizatsiya bilan jixozlanganligini "Xo'jalik organi" bilan birqalikda xar chorakda eng kamida bir marta tekshiradi va dalolatnomada tuzilib mas'ul xodimlar tomonidan tasdiqlanadi, aniklangan kamchilinklarni "Xo'jalik organi" tomonidan bajarishga muddatlar belgilanadi, "qo'riqlash"ga ma'lum qilish tartibi va muddati ko'rsatiladi.

Tekshiruv dalolatnomasida aniqlangan kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, "Qo'riqlash" tomonidan bank faoliyatini yuritish uchun berilgan litsenziyalarni olish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga taklif beriladi. Ko'rsatilgan dalolatnomolar shu shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

3.2.14. «Qo'riqlash» xodimlari xizmatni o'tash vaqtida aniqlangan kamchiliklarni "Xo'jalik organi" raxbarlariga o'z vaqtida yetkazadi.

3.2.15. "Qo'riqlash" bankni qo'riqlash va signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha schotfakturna va bajarilgan ishlar lalolatnomasini (shartnomaga ilova etilgan xujjatlar ro'yxati asosida) keyingi oyni 1 chi sanasigacha "Xo'jalik organi"ga taqdim etadi.

"Xo'jalik organi" bankni qo'riqlash va signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarilganligi uchun "Qo'riqlash"ga 100% mablag'ni o'tkazib beradi.

3.2.16. "Qo'riqlash"ning qo'riqlov guruxi ular uchun ajratilgan joyni va qo'riqlash xonasini tozalikda saklashga. ularga berilgan buyumlar, mebel, aloqa va signalizatsiya texnik qurilmalariga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kafililiklarini oladilar.

3.2.17. Qo'riqlash-yong'indan xabar beruvchi signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, ularni soz xolatda saqlaydi va uzlusiz ishlashini ta'minlaydi.

3.2.18. "Qo'riqlash" qo'riqlash xonasida yetishmagan anjomlar xamda belgilangan xizmat muddatini (ishlab chiqaruvchining pasporti asosida) o'tagan aloqa signalizatsiya texnik vositalarini almashtirish zarurligi xaqida "Xo'jalik organi"iing raxbarlariga yozma xabar beradi.

4. Shartnoma narxi, xisob kitoblar va nizolarni xal etish tartibi.

4.1. Ko'rsatiladigan qo'riqlash xizmatlarining oylik summasi smeta-xisob ilovasida belgilanib shartnomaning bevosita ajralmas qismi xisoblanadi va ikki tomonlama tasdiqlangandan keyin shartnoma narxini belgilaydi.

Smetsa-xisob ilovasida postlarining soni, ishslash vaqt, maxsus xonalarni TQPga topshiriladigan shleyflar soni, ularning ulanish vaqt, texnik xizmat ko'rsatiladigan signalizatsiya vositalarning ro'yxati va ularning shartli qurilmalari

soni bir oylik xizmat ko'rsatish narxini belgilaydi.

Xizmat ko'rsatish narxlari Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi qo'mondon tasdiqlagan tariflar asosida, xamda O'zbekiston Respublikasidagi minimal oylik miqdori bilan belgilanadi.

4.2. "Xo'jalik organi" qo'riqlash xizmati uchun oylik to'lovni, navbatdagi oy boshlanishidan 10 kun avval (xar oyning 20 sanasida) shartnomaning umumiy summasining 100% miqdoridagi pulni «Qo'riqlash»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

4.3. Qo'riqlash xizmatlari uchun pul to'lashga «Xo'jalik organi»ning mablag'i bo'limgan xolda, yuqori tashkilotlarning markazlashgan fondlari xisobidan qarzdorlik bartaraf etiladi.

4.4. Shartnomaning bajarilishi jarayonida vujudga keladigan norozilik va tortishuvlar "Xo'jalik organi" va "Qo'riqlash" tomonlarning kelishuvi orqali xal etiladi. Kelishuv orqali xal etish imkoniyati bo'limganda o'rnatilgan tartibda Xududiy Iqtisodiy sudiga beriladi.

5. Tomonlarning javobgarligi:

5.1. "Xo'jalik organi"ning javobgarligi.

5.1.1. "Xo'jalik organi" "Qo'riqlash"ni oldindan ogoxlantirmasdan, uning xizmatidan voz kechsa, shartnomada belgilangan bir oylik xizmat narxining 0,4% miqdorida jarima to'laydi.

5.1.2. "Xo'jalik organi" "Qo'riqlash" tomonidan ko'rsatilgan xamda shartnomaning 4.2-bandida belgilangan muddatda pul to'lamagan xolda, "Xo'jalik organi" xar bir kechiktirilgan kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan mablag'ni 0,4% miqdorida penya to'laydi, lekin kechiktirilgan to'lov miqdorining 50% dan oshmasligi kerak.

5.1.3. "Xo'jalik organi" "Qo'riqlash" tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun tulovdan asossiz bosh tortsa, to'lanishi lozim bo'lgan summaning 15% miqdorda jarima to'laydi.

5.1.4. «Xo'jalik organi» tomonidan:

a) shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmaganda;

b) signalizatsiya vositalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha "Qo'riqlash" bilan shartnoma tuzilmaganda, natijada ular nosoz xolatda bo'lsa: qo'riqlash vaqtida yetkazilgan moddiy zararni o'z zimmasiga oladi.

v) "Xo'jalik organi" tomonidan shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmaganda, "Xo'jalik organi" bir oylik ko'riqlash xizmatlari narxining 15% miqdorida jarima to'laydi.

5.2. "Qo'riqlash"ning javobgarligi.

5.2.1. O'zining aybi bilan shartnoma majburiyatları noto'g'ri bajarilganligi natijasida «Xo'jalik organi» ga yetkazilgan zarar uchun, zarar xajmida moddiy javobgarlikni o'z bo'yiniga oladi. Zararni qoplash uchun o'g'irlik, bosqinchilik, yoki boshqa g'ayri xuquqiy xarakat qilinganligi aniqlanganda surishtiruv, tergov organlari yoki sudlarning qarorlari asos xisoblanadi.

5.2.2. "Qo'riqlash" tomonidan shartnomaning 3.2. bandi talablari bajarilmaganda "Qo'riqlash" bir oylik xizmat narxining 15% miqdorida jarima to'laydi.

5.2.3. "Qo'riqlash" tomonidan asoslanmagan xolatda, qo'riqlash postida ichki ishlar xodimi turmaganda, bir oylik xizmat narxining 10% miqdorida jarima to'laydi.

5.2.4. Shartnoma talablarining xar bir bузilishi xaqida tomonlar 2-nusxada dalolatnoma tuzadilar va bitta nusxasi "Qo'riqlash" ga chora ko'rish uchun yuboriladi.

5.2.5. "Qo'riqlash" o'zining aybi yo'qligini isbot qilgan xolatlarda masuliyatdan ozod bo'ladi. Kuyidagi xolatlarda masuliyatdan ozod bo'ladi:

a) tabiiy ofatlar oqibatida keltirilgan mulkiy zararlar uchun;

b) pul boyliklarini belgilangan joyda saqlanmagan xolatlarda, ularni ug'irlash yoki tajovuz sodir bo'lganda;

v) qo'riqlanayotgan xonada xodimlarning shaxsiy buyumlari qoldirilganda;

g) "Xo'jalik organi" tomonidan signalizatsiya vositalari belgilangan vaqtida ishga tushirilmaganligi ob'ektni qo'riqlashga topshirilmaganligi yoki signalizatsiyaning nosozligi xaqida "Qo'riqlash"ga xabar berilmaganligi surishtiruv tergov yoki sud organlari tomonidan aniqlanib, natijada o'g'irlash, bosqinchilik yoki tajovuz yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarga ziyon yetkazilganda;

d) ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomada qo'riqlanayotgan obektlarni texnik mustaxkamligini oshirish bo'yicha talablar bajarilmasligi natijasida, tovar-moddiy boyliklarni o'g'irlanishiga sharoit yaratalganda;

e) qo'riqlanayotgan ob'ektga «a» «b» «v» «g» «d» bandlarda ko'rsatilgan xolatlarda begona shaxslar kirish natijasida, tovar-moddiy boyliklarni buzish, yo'qotish yo'li bilan zarar yetkazilganda;

j) "Xo'jalik organi" tomonidan ob'ektni texnik mustaxkamligi oshirish bo'yicha tadbirlar belgilangan muddatlarda bajarilmasa va shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan majburiyatları bajarilmagani natijasida o'g'irlash sodir bo'lganda.

6. Fors-major.

6.1. Shartnoma tuzilgandan keyin tomonlarning o'ziga bog'liq bo'limgan xolda favqulodda vaziyatlar vujudga kelib, bu voqealar oldindan kutilmagan bo'lib xamda ularni oldini olish imkoniyati bo'limgan xolatlarida tomonlar mazkur shartnoma bandlari bo'yicha javobgarlikdan ozod etiladi.

6.2. Ushbu shartnomanini bajarilishiha to'siqinlik qiluvchi favquloddagi vaziyatlarga tomonlar ta'sir o'tkazish imkoniyati bo'limgan, voqealar sodir bo'lishiga tomonlarning mas'uliyati bo'limgan xolatlar kiradi: yer kimirlashi, suv toshqini, tabiiy ofat natijasida yong'in sodir bo'lishi, xukumat qarorlari va davlat organlarining farmoishlari, turli xarakterdagи xarbiy xarakatlar.

6.3. Tomonlar zudlik bilan 5 kundan kechikmagan muddatda shartnomada belgilangan majburiyatlarini ajarishda to'sqinlik qiladigan fors-major vaziyati boshlanishi va tugashi xaqida yozma xabar berishi kerak. Shartnomani bajarish mudlati fors-major vaziyati davriga binoan uzaytiriladi. Fors-major xolati bo'lganligi xaqida O'zbekiston Respublikasi vakolatlari xujjatlari bilan tasdiqlanadi.

Fors-major xolati bo'yicha o'z vaqtida yozma axborot berilmasa yoki vakolatlari organlar tomonidan fors-major xolati sodir bo'lgani tasdiqlanmasa, tomonlar o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha mas'uliyatdan ozod etilmaydi,

6.4. Fors-major vaziyatlari 3 oydan ortiq muddat davom etganda, tomonlar bir oy muddat ichida bitimga kelmasa, xar ikkala tomoniga shartnomani tuxtatish xuquqi beriladi.

7. Yakunlovchi qoidalar.

7.1. Ilovalar (plan-sxema, postlar dislokatsiyasi, bankni signalizatsiya vositalari bilan jixozlash sxemasi, xizmatlar uchun to'lovlardan smeta-xisobi, bank binosining texnik musaxkamligini tekshirish dalolatnomalari) shartnomaning ajralmas qismi xisoblanib, ilova shaklida rasmiylashtiriladi.

7.2. Shartnomaga kiritiladigan o'zgarishlar va qo'shimchalar yozma xolatda bajarilib, ikki tomonning raxbarlari tomonidan tasdiqlangan xolda xaqiqiy bo'ladi va shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

Taraflar bir oy davomida postlarni dislokatsiyasi o'zgarishi, qo'riqlash xizmatlarining turlari va xajmi xaqida, shartnomaning bandlari bajarilishi xaqida bir birlariga yozma axborot beradilar.

7.3. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish yoki bekor qilish maqsadida bo'lgan tomon (**agarda bank o'z xizmat faoliyatini tugatsa xamda bankrotlik e'lon qilgan taqdirda, shartnoma bekor qilinadi**), belgilangan vaqtadan ikki oy oldin ikkinchi tomoniga yozma ravishda murojat kilishi shart.

7.4. Ikkala tomonning xar biri xam ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini boshqa shaxsga topshirishni, ikkinchi tomonning yozma roziligidisiz amalga oshirmaydi.

7.5. Ushbu **shartnoma uch yil muddatga** ikki nusxada tuzilib, ikkala tomoniga bitta nusxadan topshiriladi. Shartnoma muddati tugashidan ikki oy oldin ikkala tomonning raxbariyati tomonidan shartnomaga o'zgarishlar va qo'shiimchalar kiritish yoki shartnomani bekor qilish talablari bilan murojaat qilmasa, **shartnoma muddati shu muddatda uzaytirilgan xisoblanadi**.

7.6. To'lovlardan tartibini o'zgartirish, ikki tomonning protokol kelishuvini bilan rasmiylashtiriladi va shartnomaga ilova qilinadi.

7.7. "Xo'jalik organi" shartnomani muddati tugagashidan oldin voz kechsa, "Xo'jalik organi" uch kun muddat ichida qo'riqlash xizmatlarini bekor qilishga bog'liq xarajatlarni qoplash uchun "Qo'riqlash"ning xisob raqamiga mablag' o'tkazadi.

7.8. Shartnomaning 2.6-bandiga asosan qo'riqlash xizmatlarini tashkil etish muddati ichida "Xo'jalik organi" qo'riqlash xizmatidan voz kechsa, "Ko'riqlash" tomonidan shtat birligini rasmiylashtirish va ajratishga bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash uchun "Xo'jalik organi" 10 kun muddat ichida qo'riqlashning xisob raqamiga, taqdim etilgan xisob fakturaga binoan mablag' o'tkazadi.

8.Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari:

«I J R O Ch I»

Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi.

Manzili: Buxoro sh. M.Iqbol 10-uy.

x.r: 21 596 000 203 976 980 001

mfo: 00017 inn: 202 623 032

Bank nomi: Buxoro shaxar

Makaziy bank

Boshqarma boshlig'i

Sb.A.Jumaev

Xiz. Tel: 465 221-30-10, 221-30-11

Boshqarma MIB boshlig'i

N.I.Sa'dullaev

Boshqarma YuG bosh yuriskonsulti

M.U.Suvonov

Buxoro tuman QB boshlig'i

Sh.X.Xattabov

«XO'JALIK ORGANI»

ATB «Qishloq qurilish bank»

Gala-Osiyo filiali

Manzili: AKSIYADORLIK TILORAT BANKI

Qishloq qurilish bank

GALA OSIYO FILIALI

x.r. h: 1990700000000075001

mfo: 2020125 inn: 20120 MFO 00975

Bank nomi: Buxoro tuman Galo Osiyo shahar

Buyuk ipak yo'lli ko'chasi 25 uy .

Bank boshqaruvchisi

Xiz. tel:

Bosh xisobchi

F.O.Jumaev

Xuquqshunos

K.M.babeb

T.U.Gorroe6